



## Ish haqi loyihalari

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

Bank korxonalariga va tashkilotlarga plastik kartalar yordamida ish haqi va boshqa daromadlarni hisoblash va to'lashni amalga oshirishni taklif qiladi. Bu xodimlarga ish haqini to'lash bilan bog'liq harajatlarni, kassa operatsiyalarini amalga oshirish, naqd pul mablag'larini saqlash, tashish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni tejash hisobiga, ancha kamaytirishga imkon beradi

Ish haqi loyihasi amalga oshiriladigan korxonaning xodimlari ham bir qator afzalliklarga ega bo'ladi: ish haqi berilishida maxfiylik, karta hisobraqamidagi qolgan pullarga foiz hisoblanishi, o'zi qayerda bo'lmasin, istalgan bankomatda naqd pul mablag'larini olish imkoniyati

### **Xalq bankinging so'mlik kartalari bilan, Siz quyidagilarga ega bo'lasiz:**

- Hisob-kitoblar va pul mablag'lari saqlanishining xavfsizligi;
- Kartadagi mablag'lar qoldig'iga hisoblangan foizlar hisobidan qo'shimcha daromad;
- Pul mablag'laringiz o'g'irlanishi yoki yo'qolishiga yo'l qo'yilmasligining kafolatlanishi;
- Hisob-kitoblarning aniq bo'lishi

### **Bank tomonidan chiqariladigan so'mlik kartalarning turlari:**

Ish haqi plastik kartasi (shaxsiy to'lov kartasi) — tashkilot va har bir xodim o'rtasidagi shartnomaga muvofiq tashkilotning xodimlariga ochib beriladi va uning saqlovchisiga o'zi ishlaydigan korxonadan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni (nafaqalar, stipendiyalar va hokazo) olishga, savdo shoxobchalarida tovarlar va xizmatlar haqini to'lashga, bank kassalarida POS terminallari orqali naqd pul mablag'larini yechib olishga imkon beradi;

Korporativ karta — yuridik shaxslar va yuridik shaxs tuzmagan holda xususiy tadbirkorlar uchun ochiladi va savdo-servis korxonalarida korxonaning o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tovarlar yoki xizmatlar uchun naqdsiz to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi

---